UDK: 297:17.024:37.04(571.6)"1991/":821.512.133
DOI: 10.56292/SJFSU/vol29_iss5/a16

YANGI O‘ZBEKISTON SHAROITIDA YOSHLAR MA’NAVIY-AXLOQIY TARBIYASIDA ALISHER NAVOIY TASAVVUFIY QARASHLARINING O‘RNI

РОЛЬ СУФИСТКИХ ВОЗЗРЕНИЙ АЛИШЕРА НАВОИ В ДУХОВНО-НРАВСТВЕННОМ ВОСПИТАНИИ МОЛОДЕЖИ В УСЛОВИЯХ НОВОГО УЗБЕКИСТАНА

THE ROLE OF ALISHER NAVOI’S SUFIST VIEWS IN THE SPIRITUAL AND MORAL EDUCATION OF YOUTH IN THE CONDITIONS OF THE NEW UZBEKISTAN

[1]Pardayeva Marhabo Davlatovna
[1]Respublika Ma’naviyat va ma’rifat markazi, Buxoro viloyati bo‘limi rahbari, falsafa fanlari nomzodi, dotsent

Annotatsiya

Maqolada Alisher Navoiyning yoshlar tarbiyasiga oid tasavvufiy qarashlari asarlari asosida tahlil qilingan. Naqshbandiya tariqatining asosiy talablariga e’tibor qaratilgan. Tasavvuf ta’limotining o‘ziga xos xususiyatlari inson ma’naviyati bilan bog‘liqlikda talqin qilingan. Naqshbandiyada kishilarning ma’naviy axloqiy kamolotining o‘ziga xos jihatlari mazmun mohiyati ochib berilgan. Tasavvuf ta’limotida komil insonga qo‘yilgan talablar izohlab berilgan. Shuningdek, yangi O‘zbekiston sharoitida yoshlar ma’naviy axloqiy tarbiyasida Alisher Navoiy qarashlarining o‘rni tadqiq qilingan.

Аннотация

В статье анализируются суфисткие взгляды Алишера Навои о воспитании молодежи на основе его произведений. Уделяется особое внимание основным требованиям учения Накшбанди. Специфические черты суфизма раскрываются в связи с духовностью человека. Изучено требования совершенного человека в суфизме. Также исследована роль взглядов Алишера Навои в духовно-нравственном воспитании молодежи в условиях нового Узбекистана.

Abstract

The article analyzes the Sufi views of Alisher Navoi on the education of youth based on his works. Particular attention is paid to the basic requirements of the Naqshbandi teachings. The specific features of Sufism are revealed in connection with human spirituality. The requirements of a perfect person in Sufism have been studied. The role of Alisher Navoi’s views in the spiritual and moral education of youth in the conditions of the new Uzbekistan is also explored.

Kalit so‘zlar: *Tasavvuf, naqshbandiya, ilm, ma’rifat, ma’naviyat, saxiylik, bag‘rikenglik.*
Ключевые слова: *Суфизм, Накшбандия, знание, просвещение, духовность, щедрость, толерантность.*
Key words: *Sufism, Naqshbandiyya, knowledge, enlightenment, spirituality, generosity, tolerance.*

KIRISH

Yangi O‘zbekiston sharoitida amalga oshirilayotgan keng qamrovli islohotlarning pirovard natijasi yoshlarning ongu-shuuri, ma’naviyatiga, ijtimoiy faolligiga bog‘liqdir. Tarbiya shunday bir murakkab jarayonki, uning asosini pand-nasihatlar, o‘gitlar tashkil qiladi. Bularning barchasi ma’naviy merosimiz bisoti hisoblanib, asrlar osha o‘zining qimmatini saqlab qoladi va sayqallashadi.

NATIJA VA MUHOKAMA

Bugun shiddat bilan o‘zgarayotgan dunyoda manfaatlar to‘qnashuvi kuchaymoqda. Insoniyat uchun beqiyos yangi imkoniyatlar bilan birga kutilmagan muammolarni ham keltirib chiqarmoqda. Milliy o‘zlik va ma’naviy qadriyatlarga qarshi tahdid va xatarlar tobora ortib bormoqda. Ijtimoiy-ma’naviy muhitni ilmiy asosda tahlil qilishni davrning o‘zi talab etmoqda. *“Agar kimdir, ma’naviyat masalasi – bu faqat Ma’naviyat markazi yoki tegishli vazirlik va idoralarning ishi, deb o‘ylasa, xato qiladi. Bularning barchasi oldimizda turgan eng asosiy, eng muhim vazifalardan biridir...* Biz yaratayotgan Yangi O‘zbekistonning mafkurasi ezgulik, odamiylik, gumanizm g‘oyasi bo‘ladi. Biz mafkura deganda, avvalo, fikr tarbiyasini, milliy va umuminsoniy qadriyatlar tarbiyasini tushunamiz. Ular xalqimizning necha ming yillik hayotiy tushuncha va qadriyatlariga asoslangan” [1].

Inson hech qachon komil bo‘lib tug‘ilmaydi yoki boshqacha qilib aytganda, birdaniga kamolotga erishmaydi. Komillikka erishish uchun inson ketma-ket kamolot bosqichlarni bosib o‘tmog‘i kerak. Tasavvufda bu kamolot bosqichlari maqomot, ya’ni maqomlar deb yuritiladi. Mutafakkir Navoiy o‘z asarlarida Bahouddin Naqshband asoslagan naqshbandiya kamolot yo‘li

maqomlari haqida ma’lumot bergan. Bularning birinchisi – tavba. Buning ma’nosi shundaki, insonni komillik yo‘lidan chalg‘ituvchi barcha narsalardan voz kechib, nafs istaklariga chek qo‘yish. Ikkinchisi – vara’, ya’ni barcha harom, shubhali narsalardan saqlanish. Uchinchisi – zuhd, faqat toat-ibodat bilan shug‘ullanish, taqvodorlik. To‘rtinchisi – faqr, dunyo ne’matlarini tark etish. Beshinchisi – sabr, ya’ni har qanday ofat va zulmlarga sabr qilish, Allohga nola qilmaslik. Oltinchisi – xavf, buning ma’nosi shundaki, inson faqat havf bilan yurishi, shayton vasvasasiga tushib qolishdan qo‘rqish, xatoliklarni qilmaslik. Yettinchisi – rajo, ya’ni har narsaga Alloh marhamatidan umidvor bo‘lib yashash. Sakkizinchisi – tavakkal, to‘la ishonch bilan o‘zini Alloh ixtiyoriga topshirish, tirikchilik tashvishlaridan uzoqda bo‘lish, nafsdan tiyilish. To‘qqizinchisi – rizo. Nafs rizosidan chiqib, Alloh rizosiga kirish, hamma narsa Allohdan deb bilish.

Naqshbandiya ta’limotining o‘ziga xosligi shundaki, bunda tarkidunyochilik, uzlatda umrguzaronlik qilish qoralanadi. Naqshbandiyada kishilarning ma’naviy axloqiy kamoloti, foniy dunyo huzur-halovatlarining quliga aylanmaslik, molu mulk ramziga sajda qilmaslik, boriga sabr-qanoat bilan yashash, undan ortig‘idan umidvor bo‘lmaslik, manmanlikka chek qo‘yish, boshqacha qilib aytganda, qalbni keng tutish, komil inson darajasiga ko‘tarilish, axloqiy yetuklikni har qanday narsadan ustun qo‘yish ustuvor maqomga ega bo‘lib bordi.

Naqbandiya tariqatida dunyoparastlik, nafsparastlik, zohirparastlik, kibr, riyo qoralanadi, ularning aksi bo‘lgan, faqirlik fazilatiga katta urg‘u beriladi. Alisher Navoiy o‘zining “Lison ut-tayr” asarida bu maqom, ya’ni kamolot bosqichlarini vodiylar deb atab, tasavvuf yo‘lini tutgan solik 7 vodiy - Talab (istak), Ishq (Haqni sevish), Ma’rifat (Haqqa yaqinlashish), Istig‘no (hammaning tengligi), Tavhid (Haq, ya’ni borliqning yagonaligi), Hayrat (bor-yo‘qlik, kecha-kunduzni farqlamay qolish) vodiylaridan keyin yakuniy Faqru fano (yo‘qlik)vodiysi ekanligini ta’kidlaydi. Albatta, bu barkamollik darajasidir. Demak, faqru fano haqiqatga yetmoq hisoblanadi. Qur’oni karimda banda Alloh oldida yo‘qchil ekanligi ifodalangan, ya’ni faqr bandaning, boylik Allohning sifati ekanligi aytib o‘tilgan: “Ey insonlar! Sizlar Allohga muhtojdirsizlar. Allohning o‘zigina (barcha odamlardan) behojat va (barcha) maqtovga loyiq zotdir” (“Fotir” surasi, 15-oyat) [2]. Naqshbandiya tariqatida faqr juda katta ahamiyatga ega. Mazkur tariqat murshidlari faqr inson ma’naviy kamolotining muhim nuqtasi deb hisoblaganlar. Shuningdek, naqshbandiya tariqati vakillarining o‘zlari ham hayotlari davomida faqr tamoyillariga rioya qilib yashashga harakat qilganlar. Bu xususda juda ko‘p maqomotlarda misollar keltirilgan. Mutafakkir Navoiyning faqr xususidagi fikrlarini o‘rganish uchun tasavvuf ta’limoti vakillarining ushbu xususdagi qarashlarini o‘rganish muhimdir.

Faqir va g‘aniy tasavvufiy tushunchalarini bir-biridan farqlamoq lozim. Faqir ehtiyoji bo‘lgan narsasi bo‘lmagan inson, g‘aniy esa, beehtiyojdir. Beehtiyoj faqat Allohdir!

Faqr tushunchasining naqshbandiya tariqatida ahamiyatini ko‘rsatishda Bahouddin Naqshbandning birinchi xalifalari Alouddin Attor – Muhammad bin Muhammad Buxoriyning roli kattadir. Alouddin Attorning hazrat Bahouddinga bag‘ishlangan “Maqomoti arjumand va maqoloti sudmandi hazrati Xoja Baho ul-haq vad-din Naqshband” asarida hazrat Bahouddinning juda oddiy, dabdabasiz hayot kechirganliklari, halol luqma asosidagi taomni tanovvul qilganlarini faqr talablari bilan bog‘laydi. Faqrlik naqshbandiylar talqinida “fido va esor”, ya’ni o‘zini xalqning xizmatkori deb bilish, xalq manfaatlariga xizmat qilish ekanligini anglash demakdir. Yangi O‘zbekistonda umumxalq ovoz berishi – referendumi yo‘li bilan qabul qilingan Yangi Konstitutsiyamizning birinchi moddasida O‘zbekiston – boshqaruvning respublika shakliga ega bo‘lgan suveren, demokratik, huquqiy, ijtimoiy va dunyoviy davlat, ekanligi belgilandi. Hozirgacha “Davlat – jamiyat - inson” tamoyili ustuvor bo‘lgan bo‘lsa, Yangi O‘zbekistonda “Inson – jamiyat - davlat” tamoyili belgilab olindi va bu bilan davlat organlarining xalq uchun xizmat qilishi belgilab berildi. Bahouddin Naqshband tomonidan va naqshbandiya ta’limotida ilgari surilgan davlat xizmatchilarining xalq uchun fidoyilik ko‘rsatib xizmat qilishlarini ushbu konstitutsiyaviy tamoyilning hayotga joriy qilinishida ahamiyati kattadir.

Xalifa Xoja Alouddin Attor ta’kidlashicha, ustozi hazrat Bahouddin “bizning sulukka kirishning birinchi sharti faqr” deb aytgan ekanlar. Demak, naqshbandiylar talqinidagi faqr juda keng ma’noli bo‘lib, komillikning eng oliy sharti hisoblangan.

Hazrat Navoiy “Nasoyim ul-muhabbat”da Jaloliddin Rumiyning bir darveshning faqr nima degan savoliga bergan javobini keltiradi:

Faqr – javhardir, faqrdan boshqasi arazdir,

Faqr – shifodir, faqrdan boshqasi bemorlikdir.

Olamning barchasi nayrang va g‘ururdir,
Faqr esa, olamdagi sir va maqsaddir [4].

Xulosa shuki, naqshbandiyada faqr Allohga yaqinlashishning oliy darajasi sifatida talqin qilingan. Tasavvuf har bir narsaning qarama-qarshi, teskari jihatlari mavjudligini, hayot doim kurashlardan iborat ekanligini, bu olamning boqiy emasligini tushuntiradi.

Tasavvuf ta’limotida komil insonga juda katta talablar qo‘yilgan. Bu rutbaga yolg‘iz Muhammad(s.a.v.) payg‘ambar loyiq ko‘rilgan. Shu sababdan komil inson haqidagi nazariya ideal ta’limotga aylangan edi. “Ibn Arabiy, Shayx Omiliy va Abdulqodir Giloniy qarashlariga diqqat qilinsa, komil inson bir kayhoniy vujud bo‘lib ko‘rinadi, uning sifatlari yerdagi foniy odamlar sifatiga, aniq shaxslar xislatiga o‘xshamaydi. Unda biz jamiki g‘ayritabiiy kuchlarning majmuini mushohada etganday bo‘lamiz... Komil inson bular nazarida olamlarni egallagan, olamlarga, barcha jonzotlar va insonlarga ta’sir eta oladigan, insoniyatni boshqaradigan bir Buyuk ruhdir. Ma’naviy-Aqliy qudratdir” [12]. Komil inson ta’limoti vakillaridan Aziziddin Nasafiy bunday qarashlarni hayotga yaqinlashtirdi. Buning natijasida komil inson haqiqiy odamga aylandi. Nasafiy fikricha, “To‘rt narsa – yaxshi so‘z, yaxshi ish, yaxshi xulq va ma’rifatda kamolga yetgan har qanday kishi komil inson atalishiga munosib” [8]. Bu fikrdan haqiqat shuki, komil inson bo‘lish uchun hammada imkoniyat mavjud. Faqat shu maqsad yo‘lida harakat kerak. Muhammad alayhisalom komillar komili bo‘lib qolaveradi.

Hazrat Navoiy ustozi mutafakkir Abdurahmon Jomiy asarlarida dunyo hoyu havaslaridan yiroq bo‘lish, asl insoniylik darajasida umrguzaronlik qilish xususida fikr yuritgan. Jomiy nazdida asl insoniylik bu faqr gavhariga yetishmoqlikdir.

Ta’kidlash joizki, Jomiy va Navoiy nazdidagi faqr ma’naviy ruhiy erkinlikdir. Abdurahmon Jomiy ta’kidlashicha, nafs insonni tubanlik sari olib borsa, faqr ma’naviy parvozga yetaklaydi:

Xoja nafsi badligi sabab
Turli-tuman taomlar tilar.
Kekirganda bo‘g‘zidan, ajab,
Chiqaradi yoqimsiz yellar.
Faqir nonni ayronga bulab,
Kamtargina iftorlik qilar.
Parvoz etar quyoshga qarab,
Chunki undan nur hidi kelar [7].

Naqshbandiya tasavvufiy ta’limotida faqr hozirgi kun uchun ham kerak bo‘lgan insonlar axloqidagi samimiylik xislatlarini qaror toptirishda muhim tarbiya vositasidir. “Faqr” so‘zi hazrat Navoiy asarlarida 264 marta qo‘llanilgan. Shundan, “Xazoyin ul-maoniy”da 192 marta, “Badoe’ ul-bidoya”da 114 marta, “Navodir un-nihoya”da 76 marta, “Ilk devon”da 58 marta uchraydi. Hazratning faqr masalasiga bunchalik ko‘p e’tibor berishiga naqshbandiya ta’limotining ijtimoiy muhit muammolarini yechishga bo‘lgan intilishi ham ta’sir qilgan. Chunki u yashagan davrda faqr ma’naviyat asosi sanalgan. Faqr – bu Allohga muhabbat sifatida ham qaralgan. Demak, Navoiy nazdidagi faqr naqshbandiyadagi “Dil ba yoru, dast ba kor” shioriga to‘liq mos keladi. Chunki hazrat Navoiy faqr talqinida taqvodorlik, nafsni tiyish, Allohga muhabbat, halol luqma, mehnatsevarlik kabi oliyjanob fazilatlarni tushungan. E’tirof etish kerakki, bu fazilatlar Yangi O‘zbekistonda yosh avlod tarbiyasida ham g‘oyatda ahamiyatlidir.

ADABIYOTLAR TAHLILI

Hazrat Alisher Navoiy “Nasoyim ul-muhabbat” asarining kirish qismida faqr maqomidagi kishilarning fe’llari xususida fikr yuritadi. Ular fe’llariga xos bo‘lgan muhim jihat ular hech narsani hech kishidan ayamaslar, deb ta’kidlaydi. Demak, bunda faqirning o‘zlik bilan munosabati mavjud. Solik o‘z o‘zligini faqr yo‘li bilan yo‘qotishga erishar ekan. Komillik yo‘li nafsni yengishdan boshlanadi. Tasavvufda tubanlikka undovchi nafs - nafsi ammorani turli nomlar bilan ataladi. Nafsi ammorani - kofir, dushman, Dajjol, dev kabi sifatlar bilan qoralanadi. Bu o‘rinda Qur’oni karimdan Yusuf alayhissalomning quyidagi fikrlarini keltirish joizdir: “Men nafsimni oqlamayman. Chunki nafs – agar Parvardigorning o‘zi rahm qilmasa, albatta, barcha yomonliklarga boshlaguvchidir” [3]. Nafsi ammora hukmida bo‘lgan kishilar g‘aflat holatidagi kishilardir.

Imom G‘azzoliy ta’kidlashicha, tasavvuf ahli nafs deganda barcha yomon illatlarni o‘zida mujassam etgan zo‘ravon kuchlarni nazarda tutadilar. Demak, nafs inson uchun zo‘ravon kuch. U insonning o‘z menligidir. Agar u tarbiya qilinmasa, insonni ich-ichidan yemiradi. Navoiy hazratlari ham nafsi ammora xususida to‘xtalib “G‘aroyib us-sig‘ar”da shunday bayt bitganlar:

Bo‘lub nafsing‘a tobe’, band etarsen tushsa dushmanni,
Senga yo‘q nafsdek dushman – qila olsang, ani qil band.

Hazrat Navoiy dunyoning o‘tkinchi, bevafo ekanligi, inson bu dunyoda o‘zligidan, ya’ni nafsidan voz kechishini o‘xshatma tarzda bayon etgan:

Ey Navoiy, er esang dunyo arusin qil taloq,
Bir yo‘li bo‘lma zabun bu zoli makkor oldida [6].

Tasavvuf she’riyatida dunyo qari kampirga, bevafo ma’shuqaga, ishvagar kelinchakka o‘xshatiladi. Navoiy nafsning – dunyo - kelin kabi maftunkor, ammo zolim va makkor ekanligini, er kishi undan o‘zini yiroq tutishi, undan voz kechishi kerakligi to‘g‘risida ogohlantiryapti:

Hazrat Navoiy nazdida faqirlik eng oliy kamolot darajasidir. Muhammad alayhissalomning “Faqrlik – mening faxrim!” deb aytganliklari xususidagi hadis bor. Bu tasavvuf ahlining shioriga aylangan. Faqr bu kambag‘allik, qashshoqlik ma’nosida emas, albatta. Faqrlik Allohdan o‘zgaga, dunyoga ehtiyojsizlikdir. Boshqacha qilib aytganda, tasavvufiy ma’noda faqrlik bu hech narsaning yo‘qligi emas, balki dunyoga, boylikka ruju qo‘ymaslik, davlatmand, boy bo‘lgan taqdirda ham o‘zining boyligi, ne’matlariga Allohning mulki deb qarashi, o‘zgalarga yordam berishi tushuniladi. Hazrat Navoiy, Xoja Ahror Valiy hisobsiz mol dunyoga ega bo‘lganlar, lekin faqirona hayot kechirganlar. Alisher Navoiy fano dashtiga kirish uchun “o‘zni o‘zlikdan ozod aylash”, “zodsizliq zodini omoda” etish lozim, deydi. Buning ma’nosi shuki, oziqsizlikni oziq bilish, ruhiy oziqning o‘zi bilan kifoyalanish kerak.

Naqshbandiya tariqatining asosi bu zikri xufiya bo‘lib, zikri xufiya o‘zlik bilan uzviy bog‘liqdir. Bu xususda professor N.Komilov shunday ta’kidlaydi: “Bahouddin Naqshband ta’lim beradilarki, solik hamisha o‘z botiniy ahvolining tahqiqi payidan bo‘lsin, nazorat va hifzu hisobni tekshirib turishni kanda qilmasin. Alouddin Attor pirlarining fikrini davom ettirib, xatar botinda o‘rnashib qolmasligi uchun, ya’ni dunyo mehri dilni band etmasligi uchun o‘zini kuzatishi, nafas orqali bo‘shatib turishi kerak, deb aytadi. Shunda iroda-ixtiyor qaysi tomonda ekani ma’lum bo‘ladi. Kishi qanchalik botinga safar qilsa, shuncha o‘zini anglaydi, zotan o‘zingga ketish – o‘zidan ketish (o‘zini tark etish) demak. Va ayni paytda bu o‘zingga qarab borish hamdir. Chunki o‘zlikni tark etmoq – o‘zini tanimoqdir. O‘zingdan begonavu Haqqa oshnolik, o‘zidan g‘oyibu Haqqa hozirlik shu taxlit qo‘lga kiritiladi”. Demak, shu tariqa nafs va dunyodan qutulgan solik fanoga erishadi.

Mutafakkir Navoiy asarlari hayot qomusiga o‘xshaydi. Buning sababi shundaki, biror bir hayotiy masala Hazrat Navoiy nazdidan chetda qolmagan. Naqshbandiya tariqatining butun mazmun mohiyati uning asarlari, qarashlarida o‘z aksini topgan [13-15].

XULOSA

Tasavvuf falsafasida aksariyat hollarda uchrab turadigan tushunchalar, iboralarni aynan tushunib talqin qilmasdan, ularni ramziy obrazlar deb faraz qilish maqsadga muvofiqdir. Insonning haqiqatga erishuvi his-tuyg‘ularning tug‘yon urishi holatini mastlik, sarxushlik deb ham aytiladi. May bilan oshno bo‘lish, mayni kanda qilmaslik, sarxush bo‘lish tasavvuf ta’limoti vakillari tomonidan - ichimlik - og‘uga qul bo‘lish, bachkana qiliqlar sohibiga aylanish, kun bilan tunning farqiga bormaslik ma’nosini emas, aksincha, Allohga bo‘lgan ilohiy ishqdan bahramand bo‘lish, uning visoliga yetish maqsadida o‘rtab-yonish, Undan o‘zga narsaga topinmaslik, Undan boshqani o‘ziga aslo do‘st bilmaslikni anglatadi.

Islom an’analariga ko‘ra, uning rasm-rusumlariga so‘zsiz itoat qilish talab qilinadi. Tasavvufda esa, ular haqiqiy iymon-e’tiqodning poydevori emas, balki po‘stlog‘i sanalib, iymon butunligi Allohga bo‘lgan ilohiy ishq, uning ishqida dardman bo‘lish, o‘zining huzur-halovatidan begona bo‘lishda namoyon bo‘ladi.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Ўзбекистон Республикаси Президенти Шавкат Мирзиёев раислигида 2021 йил 19 январь куни маънавий-маърифий ишлар тизимини тубдан такомиллаштириш, бу борада давлат ва жамоат ташкилотларининг ҳамкорлигини кучайтириш масалалари бўйича ўтказилган видеоселектор йиғилишидаги маърузаси.
2. Қуръони Карим. Таржима ва изоҳлар муаллифи А.Мансур. –Т., 1992. –Б.399
3. Алоуддин Мансур. *Қуръони Карим*, Ўзбекча изоҳли таржима, Тошкент, Чўлпон, 1992. –Б.158
4. Алишер Навоий. Насойим ул-муҳаббат. МАТ. Т.17. –Тошкент: Фан, 2001. –Б.328.
5. Алишер Навоий. Лисон ут-тайр. МАТ. Т.12. –Т.: Фан. 238-239 бетлар
6. Алишер Навоий. Ғаройиб ус-сиғар. МАТ. Т.3. – Т.: Фан, 1988. – Б.46.
7. Абдураҳмон Жомий. Гулшанингда сўлмасин гул (Сайланма). – Тошкент: Фан, 2008. –Б.281
8. Азизиддин Насафий. Зубдат ул-хақойиқ (Н.Комилов таржимаси). – Тошкент: “Камалак”, 1996. –Б.51.

9. Абдураҳмон Суламий. Тасаввуф ва унинг ҳақиқати ҳақида муқаддим.-Тошкент: Ҳилол нашриёти, 2020. -Б.74.

10. Н.Рамазонов. XI-XIV асрларга оид тасаввуфий манбаларда фақр талқинлари. Истиқлол даври ўзбек навоийшунослиги. Ўттиз жилдлик. 26-жилд.Тошкент, 2022. –Б.17

11. Ш.Сирожиддинов. Ахлоқ ва нафс тарбияси. Истиқлол даври ўзбек навоийшунослиги. Ўттиз жилдлик. 18-жилд.Тошкент, 2022. –Б.289

12. Комилов Н. Тасаввуф. –Тошкент: Моваройуннаҳр – Ўзбекистон, 2009. –Б.146

13. Jurakulovich, S. J. (2022). ATTITUDE TO HUMAN DIGNITY IN THE PERIOD OF AMIR TEMUR AND TEMURIDS DYNASTY. *Web of Scientist: International Scientific Research Journal*, *3*(5), 43-47.

14. Пардаева, М. Д. (2021). ЎТМИШИ ШАРАФЛИ, КЕЛАЖАГИ БУЮК ХАЛҚ МАЪНАВИЯТИДА ҲАЗРАТ АЛИШЕР НАВОИЙ ҚАРАШЛАРИНИНГ ЎРНИ. ИННОВАЦИИ В ПЕДАГОГИКЕ И ПСИХОЛОГИИ, 4(3).

15. Pardaeva, M. D. (2020). THE ROLE OF THE JADID'S THINKING VIEWS IN THE FIGHT AGAINST ENLIGHTENMENT AGAINST IGNORANCE. Ўтмишга назар журнали, 10(3).

16. Пардаева, М. Д. (2018). Использование средств народной педагогики в воспитании толерантности у молодежи. Проблемы педагогики, (6 (38)).